



Iqtisodiyotning turli xil tarmoq va sohalarida MDH davlatlari va jahonning bazi bir mamlakatlari bilan **Özbekistonning iqtisodiy kōrsatkichlari**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 1i-2022 guruh talabasi

Shoydulova Maftuna Zafar qizi

+998931356221

Denov tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti3-Bb guruh talabasi

Normurodova Saodat

Denov tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti 6-Bi guruh talabasi

Ergasheva Oysanam

Introduction: Mamlakatimiz rivojlanayotgan mamlakatlar safida barcha sohalarda ōz ōrniga ega. Ammo bu kōrsatkichlar bazida ōz ahamiyatini yōqotadi. Őzbekiston iqtisodiyotning barcha sohalarida, xalq faravonligi yōlida ōz iqtisodiy kōrsatkichlarini barqarorlashtirishi lozim. Bunda Fiziokratlar ta'limoti bōyicha iqtisodiyotning asosiy tarmoği bōlgan qishloq xōjaligida shaxsiy manfaatdorlikni yuqori dajada oshirish hamda Keynes nazariyasining ishlab chiqilishida markaziy muammo bōlgan ishsizlikni bartaraf etish, shuningdek monetarizm nazariyasining asosiy muammosi bōlgan stagflatsiya jarayonini ya'ni ishlab chiqarish hajmining pasayib borish sharoitida inflyatsiyaning vujudga kelishini yōqotish zarur.

Keywords: Stagflatsiya, pul, inflatsiya, iqtisodiyot, xōjalik, dehqon, oltin, kolxoz, muholifat, vazir, islohotlar, infratuzilma, bank, budjet, tōlov, xizmat, hukumat, tanqidiy fikrlash, analitik.

Material and methods: Ushbu maqolada Barro Robert, Sala-i-Martinning 1995-yilda nashr qilingan Economic growth kitobidan foydalaniladi. Hamda internet aloqalarida Sanjar xōjaning iqtisodiy muammolar videolaridan ma'lumotlar tōplangan holda analitik usulda yoziladi.

Results: Deyarli bir yilda mustaqillikka erishgan davlatlarni aholi jon boshiga YAIMlari

- | | | |
|---|------|---------|
| 1. Qozoğiston 1991-yil 16-dekabr kuni mustqillikka erishdi. | YAIM | 10141\$ |
| 2. Turkmaniston 1991-yil 27-oktabr kuni mustaqil bōldi. | YAIM | 7612\$ |
| 3. Belarussiya 1991-yil 25-avgustda mustaqil bōldi. | YAIM | 7304\$ |





| | | |
|--|------|--------|
| 4.Ozarbayjon 1991-yil 18-oktabrda mustaqillikka erishdi. | YAIM | 5383\$ |
| 5.Moldava 1991-yil 23-may kuni özini mustaqil deb e'lon qildi | YAIM | 5315\$ |
| 6.Gruziya 1991-yil 6-apral kuni mustaqillikka erishdi | YAIM | 5042\$ |
| 7.Ukraina 1991-yil 24-avgust kuni özini mustaqil deb e'lon qildi | YAIM | 4836\$ |
| 8.Armaniston 1991-yil 21-sentabr kuni mustaqillikka erishdi. | YAIM | 4670\$ |
| 9.Özbekiston 1991-yil 31-avgust kuni mustaqillikka erishdi. | YAIM | 1983\$ |
| 10.Qirg'iziston 1991-yil 31-avgust kuni mustaqillikka erishdi. | YAIM | 1276\$ |
| 11.Tojikiston 1991-yil 9-sentabr kuni mustaqillikka erishdi | YAIM | 897\$ |

Ma'lumotlar 2021-yilniki

Tanqidiy fikrlash biron bir narsani kamchiligini aniqlaydi(ushbu kamchiliklar tuzatilishi uchun hamda o'sha narsa yuksaklikka erishilishi uchun).Xulosa o'zimizdan.

Discussion: Özbekistonda qishloq xöjaligini kecha,bugun,ertaga.

Avval dehqonlarimiz o'zlari bilganicha talab va taklifdan kelib chiqqan holda mahsulot ekishgan.Yer o'zlariniki bo'lgan.Yerdan boshqa yillar ham foyda olish uchun yerni avaylab asrashgan,o'g'it berishgan.Ularga nima ekishini hech buyurishmagan.Ammo keyin qanaqadir qizil bayroqlilar kelib,hammasini ostin ustun qivorishgan.Qanadir kolxoz degan narsaga hammani to'plab,yer davlatniki ya'ni bizniki.Yerdan olingan hosil esa hammamizniki deb e'lon qilishgan.Ushbu holatdan s'ng qishloq xöjaligida shahsiy manfaatdorlik keskin tushib ketgan.(Shu yerda mulk haqida q'oshimcha ma'lumot keltirib o'tmoqchiman.Mulk ikki xil bo'ladi:xususiy mulk va xususiy bo'lmagan mulk. Xususiy mulk biron kishiga tegishli bo'ladi ya'ni mulkni egasi bo'ladi.Agar mulkka kimdir egalik qilsa ushbu mulkni yanada ko'paytirishga va foydaliroq qilishga harakat qiladi.Ushhu holat jamiyat rivojiga ijobiy ta'siri mavjud.Ammo xususiy bo'lmagan mulk ya'ni milkni aniq bir egasi bo'lmasa u mulk rivojlanmaydi,hech kim uni ko'paytirishga ham harakat qilmaydi.Natijada u tashlandiq mulkka aylanadi. Bunday mulklar jamiyat rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.Yer ham bu bir mulkdir.) Yuqorida ta'kidlab o'tganimdek dehqonlarni yerlarni xususiylashtirgan holda uzoqni oylab yerni parvarish qilishadi.Ammo bunga yo'l q'oyishmadi.Yerlar hammaniki bo'lgani uchun ayovsiz ishlatilindi.Kimyoviy moddalar ayovsiz haddan ziyod ko'p ishlatilindi.Yerni hech kim g'amini yemadi. Natijada yerlarning ahvoli yomonlashdi.Suv hisobi olinmagani bois Orol dengizini suvi kamayib ketdi.Keyin Özbekiston mustaqil bo'ldi.Ammo yer baribir egalik bo'lmadi.Yerlar fermerlarga berildi,ular yerlarga egalik qiladi deyildi.Ammo ular ham haqiqiy ega bo'lishmadi.paxta va bugdoy ekasan,mahsulotni davlatga ya'ni bizga berasan deyishdi ularga.Natijada yer






va unda o'sgan mahsulotga ega bo'lmagan fermerlarning ko'pi tabiiyki to'g'ri ishlatishmadi. Bazilari yerga berilishi kerak bo'lgan o'g'itlarni sotishdi, bazilari xojakorsinga ishlab, hosildan boshagan yerlarni dehqonlarga ikkinchi ekinga sotib o'tirishdi. Ammo bu hammasi emas. Fermer yerlari bazi hokimlar uchun mo'bay daromad manbai bo'ldi. Qanday qilib? Deylik bir fermerga bir yer yoqib qoldi va u yerga egalik qilish uchun hokimni oldiga bordi. U yerni o'ziga olib berishini so'radi. Albatta mukofot evaziga. Hokim yerni oldingi egasini yomon ishlayapsanga chiqarib yerni mukofot bergan fermerga beradi. Bechora oldinhi fermer yaxshi ishlayapmanku desa, hokimning qo'llari uzun, uning qo'llari hamma joyga yetadi. Suvchiga suv bermasligini aytsa fermerni ekinlari yaxshi hosil bermaydi shu bilan ish hal. Biroz vaqt o'tgach yana bu yr hoshqa odamga yoqib qoldi va yana hokim yerni mukofot evaziga o'sha odamga berdi. Shunday qilib mukofotlar evaziga bechora yerlar odamlar qo'llarida qolma-qol bo'lib, yerlarning holati yomonlashib ketdi. Egasiz yerlar eskichasiga su'gorilgani bois, orol dengizi qurib boreverdi va bir kun. Ishlar shu holda davom etaversa O'zbekiston yerlari yanada ishdan chiqaveradi. Ertaga Yerlar o'z egasini topishi kerak. Uzun qol hokimlar qishloq xojaligiga qo'llarini cho'zolmasligi kerak. Qishloqlar atrofidagi yerlar o'sha qishloqlarda yashovchilarga tegishli bo'lishi kerak. Ular orasida usta dehqonlar ko'pdan ko'p. Shunda qishloqlarda ishsizlik kamayadi. Kelajakda esa qishloqlar faol iqyisodiy maskanga aylanadi. Shunchaki dehqonlarnas balki oyo'g'ida mustahkam turadigan bunyodkor sinf bu yerda yuzaga keladi. Shunday qilib qishloq xojaligidan kelajakdagi umidlarimiz katta.!!!!

Endi keling qishloq xojaligidan chiqib Yurtimizning tabiiy boyliklari umuman olganda yerdan qazib olinadigan boyliklar haqida gaplashaylik. Masalan oltin zahiralimiz, ushbu sohada bizning yurtimiz eksport sohasida o'z vaqtida rekord natija o'rnatgan desak ham adashmaymiz. Ammo bir savol qiziqtiradi shuncha pul nimaga ishlatilinyapti? Shunchalik, chiqimlarimiz ko'payib ketdimi? Bunday deyishimni o'ziga yarasha sabalari ham bor albatta, shuncha yetakchi o'rinlarni egallab kelishimizga qaramasdan, yurtimiz yerlari hosildor, jannatmakon olka, qazilmalarga boy bo'lishiga qaramasdan bizdan naqd 108 kun keyin mustaqillikka erishgan Qozo'g'istondan YAIM bo'yicha nafaqat bu soha balkim iqtisodiyotning boshqa sohalari bo'yicha ham to'g'risini aytsam ancha orqadamiz. Bunga sabab nima deb oylaysiz?

Eng ko'p oltin ishlab chiqaruvchi davlatlar ketma-ketligi

| | | | |
|----------|-----------|-----------------|-----------|
| 1. Xitoy | 420 tonna | 11. O'zbekiston | 100 tonna |
|----------|-----------|-----------------|-----------|






| | | | |
|-------------------|-----------|-----------------------|-------------|
| 2.Avstraliya | 330 tonna | 12.Qozoğiston | 100 tonna |
| 3.Rassiya | 310 tonna | 13.Sudan | 93,1 tonna |
| 4.AQSH | 200 tonna | 14.Braziliya | 85 tonna |
| 5.Canada | 180 tonna | 15.Argentina | 72 tonna |
| 6.Indaneziya | 160 tonna | 16.Papu-Yangi Gvineya | 70 tonna |
| 7.Peru | 130 tonna | 17.Kolumbiya | 65,23 tonna |
| 8.Gana | 130 tonna | 18.Mali | 60 tonna |
| 9.Meksika | 110 tonna | 19.Burkina faso | 50 tonna |
| 10.Janubiy Afrika | 101 tonna | 20.Tanzaniya | 48,2 tonna |

Hozir men bu yerda 20 ta davlatni keltirdim. Qolganlari hozircha ushbu maqolaga taaluqli emas. Ushbu statistikadan ham kōrinib turibdiki BMT tashkilotiga a'zo bōlgan 194 ta davlat ichida mamlakatimiz oltin qazib olish bōyicha 11-ōrinda turadi. Bunday yuqori kōrsatkkich albatta quvonarli.

Juda kōpchilik, kreativ fikrlash fanidan ham bilamizki, insonlar tanqidiy fikrlashni yoqtirmaydi tōğriroği qōrqishadi, ayniqsa siyosat tōğrisida. Ammo biz iqtisodchimiz bizning ishimiz shu. Bozor mexanizmidan ham habariz bōlsa agar avval xaridorlar tomonidan talab bildiriladi, sōng sotuvchilar talabga binoan taklif bildirishadi. Talab bōlmasa taklif ham bōlmaanidek, tanqid bōlmasa ōsish ham bōlmaydi. Bolalar ham yiqilmasdan katta bōlmaydi.

Hukumatni, amaldorlarni tanqid qilish, ularni tergap turish, ularni sōroq savolga tortish yoki deputatlarga borib murojat qilgan holatda talab qilishimizni, kōpchilik bu narsani ğiybat qilish, kovlash, iğvo qilish, fitna qilish deb ōylaydi va shunaqa singib qolgan. Bu bizlarni notōğri tushunchalarimiz orqali. Bilasizmi bizlarni yana qanaqa notōğri tushunchalarimiz bor. Masalan: shukr qilishimiz kerak Liviyani qara, Iroqni qara sabr qil degan gaplar bor. Eng kulgili taraflari shundak biz internetga kirib tekshirmagan, dunyoni bilmagan holda Liviyani qara Iroqni qara deymiz. Ōzbekistonni aholi jon boshiga YAIMi 1741\$, Liviyaniki esa 7684\$, Iroqniki esa 5955\$ (2020-yil sentabr oyida jahon banki bergan ma'lumotlar). Iroqni iqtisodi bizdan 3 baavar kuchli, Liviyaniki esa 4 baravar. Aholini turmush yashash sharoiti bizdan 3,4 baravar kuchli bōlgan holda biz ōzimizni faqat aldab yuramiz, xuddi quduqqa tushib olganday, dunyodan bexabar





holatda dunyo bizga havas qiladi deb yuramiz. Qozoğistonni YAİMİ 9731\$. Biz özimizni özimiz aldab yureveramiz dunyo bizga havas qiladi deb, xalqimiz, yoshlarimiz aka-opalarimiz umuman olganda qarinfoshlarimiz, qardoshlarimiz Qozoğistonga qora ishchi bōlib ishlashga ketishadi. Ular ōz oilasi soğinchida bolalaridan ōzga yurtda yiroqda qora mehnat qilishadi. Biz endi mustaqil bōldik, yaqindagina mustaqil bōldik, ōshaning uchun hali vaqt bor, hali zōr bōlib ketamiz deyishiz mumkin. ōzbekiston mustaqil bōlgan vaqtida Estoniya, Latviya, Litva ham mustaqil bōlgan edi. Estoniyani kishi boshi YAİMİ 23066\$, Latviyaniki 19456\$, Litvaniki esa 17836\$. Bularni sharoiti aholisini turmush tarzi ōzbekistonni iqtisodiy ahvolidan 10 baravar kuchli. Siz nima deb ōylaysiz ōzbekiston bilan bir vaqtda mustaqil bōlgan bu davlatlar, nima sababdan 30 yil ichida ōzbekistondan 10 baravar rivojlanib ketdi. Buni sababi shunda bōlishi mumkinmi, bu halqlar bu davlatning aholisi ōzaro birdamligi bor. Ular bir birini sen vatandasan sen xorijdasan demaydi, sen dindorsan sen dindormassan demaydi umuman olganda aholi nir birini ajratmaydi. Ular vaqtini bekorchi narsalarga ajratmay bor energiyasjni borini ōz bilimini oshirishga hamda amaldorlarnj tergab turgani uvhun bōlishi mumkinmi?. Masalan Estoniya vaziri ōz farzandlarjnj maktabiga xizmat mashinasida olib borgani uchun xalq etiroz bildirgan, xalq etiroz bildirgani uchun deputatlar ham etiroz bildirib chiqqan, hukumat obrōsini saqlab qolishi uchun vazirni ishdan olib tashlagan. Estoniyani ğarb mamlakati ularni dunyo qarashi fikrlashi bizdan boshqacha deyishiz mumkin ha bōpti men sizlarga bitta sharq mamlakatidan misol keltiraman. Yaponiya. (Siz ōzbekiston obrōsini nima bilan ōlchaysiz. Biz zōrmiz, Amir Temur avlodimiz desak qaysidir xorij davlatlar buni e'tiborga oladimi? Sanjar xōja uvhun obrōli rivojlangan davlat qanday qilib ōlchanadi. Qōlimizdagi pasport bilan nechta davlatga bizasiz borolamiz, 57 ta davlatga. Xattoki Tojikiston ham bizlardan yaxshiroq 58 ta davlatga boroladi ular. Qirğiziston 63 davlatga, Qozoğiston 76 davlatga, yaxshiyam baxtimizga Turkmaniston bor ana zato Turkmaniston bor deb yuramiz. 75 yil oldin mağlubiyatga uchragan ōsha ikki davlat Germaniya bilan Yaponiya, Germaniya 189 davlatga boroladi, Yaponiya 191 davlatga boroladi. Obrō degani manashunaqa bōladi.) Yaponiyani bosh vazirini ōgli 2 ta vazirlik ichki ishlar va kommunikatsiya vaziri bilan birga ōtirib ovqatlangan va ushbu jarayon matbuotda chiqqach xalq norozilik bildirgan, ushbu norozilikdan sōng muxolifat partiyalari bosh vazirdan xisob sōrashgan. Nega sening ōgling xususiy korxonaga egasi bōla yurib vazirlar bilan birga ovqatlangan deb sōraganida bosh vazir kechirim sōragan. Yaponiyada bunday holatlar juda kōp, yan biri bosh vazir ōrjn bosari yirik korxonaga egalari nilan 2 yilda uch mara





uchrashib ovqatlanadi va hisobni korzona rahbarlari tōlaydi. Bu narsa xalqqa yetib noradi va ushbu narsani xalq korrupsiyaga yōyadi va norozilik bildiradi. Vazir ōrin nosari ishdan bōshatilinadi. Agar bōshatilmay xalq qōzǵalon qilib uni istefoga chiqishini sōrardi, muammo jiddiylashib ketmasligi uchun ham hni ōzlari bōshatib qōya qoladi. Agar bunday holatlarni ōzbekistondagi hirorta jurnalisi olib chiqsa xalqimiz unga nisbatan kovlama, iǵvo qilma derdi. Biz shu darajada yiriklashib ketganimiz uchun Yaponiya bizga qarz berayotgan ekanda. Yaponiya elekt energetika uchun 195 mln\$ qarz berdi va u qarz tōǵri yōnalyirilmasa hiz hni tekshirib tergab turmasak, amaldorlarni chōntagiga ketadigan bōlsa, bu pullarni sizni biz soliq va jatimalarimiz bilan tōlab beramiz. Farzandlarimiz tōlab beradi yetmaydi nevaralarimiz tōlaydi. Yaponiya faqat elektr emergiyaga pul bermadi, karona virusga qarshi kurashish uchun ham 138 mln \$ berdi. Xalqimizni 5 mln qashshoqlikda, jahon banki bergan ma'lumotga kōra qashshoqlikda yashayotgan 5 mln aholini 40%i yani 2 mlni kutilmaan 100 mingsōmlik harajatga tayyor emas. Ushbu gaplarni bazi birovlar jahon banki ǵarbda ular bizni kōrolmaydi, bizni pasaytirish uchun yolǵon ma'lumot bergan deyish mumkin. Prezidentimiz aytganidek ular ongsizlashtirish siyosat qurbonlaridir. Biz ōz kamchiliklarimizni tan olmagunimizgacha tanazullimiz davom etaveradi. Chunki kamchiliklarimizni tan olgan kunimiz ularni tōǵirlashga bōlan harakatni ham boshlahmiz.

Jahon banki bizni dushmanimiz bōlsa nega ular bizga yana 500 mln qarz berdi. Yana degan jmi boisi Jahon bankidan jami 4 mlrd qarz bōldik. Umumiy qarzlarimiz esa 31 mlrddan oshdi. Ushbu mablaǵlar yurtimiz riboji uchun turli xil tarmoqlarga tōǵri yōnaltirilgan bōlsa, bu mablaǵlar sōmga aylantiriladi yani milliy valyutaga. Katta miqdordagi mablaǵlar milliy valyutaga aulanyirilsa nega milliy valyutamiz dollara nisbatan qiymati 9 ming sōm 8 min sōmga tushib ketmadi? Milliy valyutamiz 1994-yilda joriy qilingan bōlsa 1-iyulda muomalaga chiqarilgan bōlsa, ōsha vaqtda 1 dollar 7 sōm edi. Remitr bergan nashrga kōra dunyoda qadrsiz qiymatsiz balyuta chempionatida bizning milliy valyutamiz 4-ōrinda. Nima sababdan? ōzbekiston budjeti bir qozon hu qozo tadbirkorlarni soliǵi, aholini tōlovlari, nojxona tōlovlari va boshqa turli xil soliq, tōlovlar bilan tōldiriladi. Shu qozondan shifokorlar, xodimlar, nafaqaxōrlarga umuman davlat tōlovlari tarqatilinadi. Agar yetmay qolsa bizlarda bitta telefon hilan pul ishlab chiqarilib shundan tarqatilinadi. ōz ōzidan pul inflatsiya bōladi.





Conclusion: 2022-yilda jahon chempionati Qatarda bōlib ōtdi. Ushbu chempionatni tokosha qilarkanmiz ushbu davlat haqida ham ozroq iqtisodiy qarash qilmasak ham bōlmasdi. Qatar bazinir siyosiy jihatlarimi uoki aholisiga yaratgan shatoitlari jihatidanmi ozroq ōxshar ekan. Siyosiy desak menimcha tōgri bōlmaydi iqtisodiy desak qolipga tushganday bōladi. Qatar davlatining iqtisodiy ahvolini ōrganar ekanman, yurtimizdagi soliqchilarimiz haqida ōyladim. Ular ōzbekiston farzandi bōlganidan Qatarda tuğilmaganiddan shukur qilishsa arzir ekan. Chunki Qatar farzandi bōlishganda ishsiz qolib ketar ekan. Chunki Qatarda aholi umuman hevh narsaga soliq tōlmas ekan. Ilarda soliq tizimi yōq ekan. Qatarning geografik joylashuvi chōl bōlsada ularning chekka chekka hududlarida ham elektr, suv, gaz ōchmas ekan barcha hayotiy ne'matlar bilan aholisi 100% taminlangan ekan. Qatar davlati yer osti boyliklarini ushbu hudud farzandi bōlgan barchaniki deb hisoblaydi va eksport qilingandan tushgan ulushni aholisi bilan baham kōradi. Ularda deyarli umuman jinoyat sodir etilmaydi, chunki jinoyatga moyillik nōluvchi infratuzilma yōq. Xalq boy shuning uchun ham ularni ōgirikka bōlgan ehtiyojlari yōq. Xatto ular mashinasini kalitini uning ōzida qoldiradi. Xatto migrantlar ham ōgiriklik qilmas ekan, ishidan ayrilib qolishidan qōrqib. Ertak aytganday bōldim menimcha, men ham nirinchi eshitgan vaqtjm tōgri lol qoldim. Umuman olganda xilosa shundaki davlatlar rivojlanishi ōtib borayotgan yillarda emas, ōtkazilayotgan islohatlar va xalqdadir. Amaldorlar ham xalq farzandi hamda dilbandi.

Acknowledgement: Ushbu maqolada analitik metoddan foydalanganim sababi ōzbekistonni boshqa dablalilar bilan solishtirish emas balkim Yurtimizning iqtisodiyotini shiddat bilan rivojlanishiga tōsiq bōlayotgan ba'zi hi omillarni tanqidiy usul bilan aniqlash edi. Ushbu maqolada faqat iqtisodiy kamchiliklar keltirildi ammo shuni ham unutmangki yurtimiz erishgan yutuqlarni sanasak sanab sanoğiga yetolmaymiz.!!!





References:

1. Robert, Sala-i-Martin Xavier (1995), Economic growth, MIT Press Cambridge, London
2. I.O. Yakubov, H.A. Hakimov Makroiqtisodiyot-2. O'quv qo'llanma. 2019
3. Jeyms D. Guortni, Richard L. Stroup, Duayt R. Li, Tauni H. Ferrarini, Jozef P. Kalhum, Rendall K. Fayler. Mantiqiy iqtisodiyot
4. A. Razzoqov, Sh. Toshmatov, N. Ormonov. Iqtisodiy talimotlar tarixi. T.: «Moliya». 2002,
5. Artur, Jahon banki 2011. "Ikkinchi iqtisodiyot". McKinsey choraklik (oktyabr): 1–9.
6. Riksbank. 2015. "Raqamlashtirish va inflyatsiya". Pul-kredit siyosati hisoboti (fevral): 55–59
7. www.economics.help.org
8. www.researchgate.net
9. www.online.hbs.edu
10. www.investopedia.com

